

Voleybol musobaqalari natijalari

// 29 May 2024 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/voleybol-musobaqalari-natizhalari>



Voleybol bo'yicha erkaklar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ yigitlari korxonalar sharafini munosib himoya qilishdi va 1-o'rinni qo'lga kiritishdi.

"Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ jamoasiga 2-o'rin nasib etdi.

3-o'rinni "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QK jamoasi egalladi.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qizlar jamoasi ham voleybol musobaqasida mutlaq g'alabaga erishdi va 1-o'rinni egalladi. "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QK ahil jamoasi esa 2-o'rinni zabt etdi. Faxrli 3-o'rinni "Navoiyazot" AJ jamoasi egalladi.



Bugungi sport musobaqalari yoshlarga nafaqat ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi, balki jamoada ahil-inoq ishlash va bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qildi. Barcha ishtirokchilar va g'olib yoshlarni bahslarga boy o'tgan 2-kunning yuqori natijalari bilan tabriklaymiz.











"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati